

2023 yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

# IJODIY PARVOZ

2022-yil noyabr-dekabr № 11-12 (115)

dsmi.uz

nashriyat@dsmi.uz

t.me/dsmi\_uz

O’zbekiston davlat san’at  
va madaniyat institutining  
maʼnaviy-maʼrifiy, ilmiy  
ijtimoiy gazetasи

## MUNOSABAT

### YANGI O’ZBEKISTON KELAJAGI barkamol yoshlar – malakali kadrlar zimmasidadir

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi kirib kelayotgan yilda mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyat ravnaci, yurtdoshlarimizning farovon hayoti uchun xizmat qiladigan dasturilamal bo’ldi, desak yanglishmaymiz. Bundan ko’zlangan eng olyi maqsad esa inson qadrini ulug’lashdir.

Davlatimiz rahbari o’z chiqishida “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” degan g’oyani Konstitusiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo’lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o’tishga qodir bo’lgan milliy davlatchiligidan asoslarini mustahkamlashimiz zarur”, deya alohida ta’kidlab o’tishi ham bejiz emas.

Darhaqiqat, jonajon diyorimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning asosiy huquqiy mezoni bu – Konstitusiyamizdir. Konstitusiyaviy islohotlarning, bu boradagi muhokamalarning qizg’in kechayotgani, fuqarolarimizning ayni jarayonlarda faol ishtirok etayotgani ham shundandir. Shu mavzuga to’xtalish asnosida Prezidentimiz “Muhokamalar qizg’in davom etmoqda. Bu jarayonda deputatlarimiz, siyosiy partiyalarimiz mas’ul va faol bo’lib, har bir taklifga jiddiy yondashayotganini ko’rib turibmiz. Buning uchun ularga rahmat aytaman”, alohida deya ta’kidlagani biz – siyosiy partiyalar mehnatining e’tirofidir. Albatta, bunday baho o’z-o’zidan bizga katta mas’uliyat ham yuklaydi.

2

### Istiqlolga ishonch ortdi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasini ko’pchilik intiqlik bilan kutdi. Chunki unda yangraydigan gaplar butun xalqimizga taalluqli bo’lishini barcha birdek his etib turgandi.

Murojaatnomaga bilan bevosita tanishgan har bir inson undan o’ziga xos taassurotga ega bo’ldi, o’rinli xulosalar chiqara oldi. Unda ta’lim va tarbiya mavzusi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida tilga olingani quvonarli bo’ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev taklifi bilan 2023-yil yurtimizda «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili», deb nomlanishi qalbimizni junbishga keltirdi. Binobarin, inson qadriga e’tiborsiz va ilm-ma’rifat rivojisiz yurt taraqqiyotiga erishib bo’lmasligi ayni haqiqatdir. Axir ilm saodatga eltuvchi yo’ldir. Ayni paytda ta’limga kiritilgan investitsiya kelajakka sarmoyadir. Bu esa xalq farovonligi, davlatning raqobatdoshligini ta’minlovchi omildir. Murojaatnomada ta’lim tizimini muntazam takomillashtirish, sifatlari ta’lim berish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalari ko’rsatib o’tildi.

2

Donolar so’zlaydi...

Muvaffaqiyatni sa’y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni esa sukutda ko’rdim.

Shayx Najmiddin KUBRO

O’zining aybini bilganda odam, Boshqalar aybini so’zlamasdi ham.

Abulqosim FIRDAVSIY

Hammasi qalbingga bog’liq: qalbingni o’zgartir, dunyoing ham o’zgarsin. Shamsi TABRIZIY

Nimaga qodir bo’lsangiz ham, nimani orzu qilsangiz ham, uni amalga oshirishni boshlang. Jasorat insonga kuch va hatto sehrli kuch beradi. Iogann Wolfgang GYOTE



## Qomusimiz – baxtimiz

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Konstitutsiya lotincha “constitutio” so’zidan olingan bo’lib, “tuzilish”, “o’rnatish” degan ma’nolarni bildiradi. Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo’lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo’lib, unda shaxs, jamiyat va davlat o’rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o’rnatalidi; davlat hokimiyatining tuzilishi, subektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi; jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo’riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish masalasi asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. Nihoyat ko’p izlanishlar va xalq muhokamasidan so’ng 1992-yil 8-dekabrda O’zbekiston Konstitusiyasi qabul qilindi. Davlatimizning Asosiy Qonuni bo’lgan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillik yillarda hayot sinovidan o’tib, milliy davlatchilik va uning demokratik tamoyillari asosida qurilgan siyosiy

hamda iqtisodiy tizimni shakllantirishning huquqiy poydevori vazifasini o’tab kelmoqda. Muhtaram Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, – “Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e’tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Aynan shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirom bilan ulug’lashimiz, har tomonlama o’rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo’lgan ajodolarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz qalbiga singdirishimiz zarur”.

Konstitutsiyamizda davlat o’z faoliyatini inson hamda jamiyat farovonligini ko’zlab, ijtimoiy adolatga qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. O’zbekiston Respublikasining davlat tili o’zbek tilidir. Biroq respublika hududida istiqomat qiluvchi barcha millat hamda elatlarning tillari, urf-odatlari ularning an’analari hurmat qilinishini ta’minlanishi, rivojlanishlari uchun shart-sharoit yaratilishi ham nazarda tutilgan.

Konstitutsiya: 6 bo’lim, 26 bob, 128 modda va Muqaddima (kirish) qismidan iborat.

Konstitutsiya birinchi bo’limi, “Asosiy prinsiplar” deb ataladi. Unda davlat shakli hamda suverenitetini namoyon etuvchi xususiyatlar belgilangan;

2



8



# YANGI O'ZBEKISTON

## KELAJAGI

**barkamol yoshlar –  
malakali kadrlar zimmasidadir**

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, Prezidentimiz tomonidan kirib kelayotgan yangi, 2023-yilga yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatlari ta'limi yili", deb nom berilishi xalqimizning ruhini yanada ko'tarib yubordi. Zero, inson qadri ulug'langan jamiyatda taraqqiyot ham shunga yarasha bo'ladi. Ta'lim sifatini oshirish esa – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li ekanligi murojaatnomada alohida qayd etib o'tildi.

Gap ta'lim sifati haqida borganida davlatimiz rahbari ma'rifatparvar jadid bobolarimizning "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" degan purma'no hikmati keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerakligini ta'kidladi. E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda respublikamizda oliygochlari 2,5 barobar ko'payib, 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Albatta, kelgusi yillarda bu ko'rsatkichni yanada oshirish ko'zda tutilgan. Endigi vazifa esa ta'lim sifatini yuksaltirishdir. Bunda oliv ta'lim muassasalarini jamoalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklandi. Ya'ni oliygoh rektori, professor va o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishlari, yangi, ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerak. Negaki ertangi yorug' kelajagimiz bugun yetishib chiqayotgan zamonaviy kadrlarimizga har jihatdan bog'liq.

Bundan tashqari, Prezidentimiz kelgusi yilda oliygoh talabalariga imtiyoziyi ta'lim kreditlari uchun 1,7 trillion so'm, ilm-fan va

innovatsiyalarga esa 1,8 trillion so'm ajratilishi, olimlarning ish haqi 4,5 barobar oshirilganini bildirdi. Ayni paytda, bu e'tiborga javoban endi olimlarimiz suv va energiyani tejash, tuproq unumdonligi va hosildorlik, geologiya, sanoat, qurilish kabi bugungi kundagi dolzarb yo'nalishlarda aniq natijalar ko'rsatishlari kerakligini ham uqtirdi.

Albatta, e'tibor va rag'bat bor joyda ijobjiy o'zgarish bo'ladi. Shunday ekan, oliv ta'lim tizimida davlatimiz rahbari tilga olgan shart-sharoitlar yaratilgach, professor va o'qituvchilarning ham, bo'lajak kadrlarning ham salohiyati yuksaladi. Yangidan-yangi kashfiyotlar, ilmiy izlanishlar bo'y ko'rsatadi. Oliygochlari dunyoning nufuzli ta'lim muassasalarini qatoridan o'rinn oladi. Qo'shni davlatlardan va xorijiy mamlakatlardan kelib, bizning institut va universitetlarda tahsil olayotgan talabalar safi kengayadi. Eng muhim, Yangi O'zbekiston yoshlari buyuk ajodolarga munosib avlod bo'lib yetishadi.

Umuman olganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oly Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida oldimizda katta g'ayrat-shijoat bilan zabt etishimiz lozim bo'lgan yuksak dovonlar turganligiga, buning uchun astoydil mehnat qilishimiz shartligiga yana bir bor iqrar bo'ldik. Zero, davlatimiz rahbari alohida ta'kidlab o'tganidek, "taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi".

Eldor SHERMANOV,  
O'zDSMI rektori v.b

## Qomusimiz – baxtimiz

Konstitutsiya ikkinchi bo'limi, "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi va shaxsning huquqiy holatiga taalluqli barcha jabhalarni o'z ichiga olgan;

Konstitutsiya uchinchi bo'limi, "Shaxs va jamiyat" bo'lib, uning boblarida jamiyatning iqtisodiy munosabatlarni negizi aks etgan;

Konstitutsiya to'rtinch bo'limi, "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi"ga bag'ishlangan. Unda mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati alohida-alohida boblarda belgilab berilgan.

Konstitutsiya beshinchi bo'limi, eng yirik bob hisoblanib, "Davlat hokimiyatini tashkil etish" deb nomlanadi. Bu bobda Oly Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylash tartibi, vakolatlari va o'zaro munosabatlari asoslari belgilangan. Bob, shuningdek, davlat boshqaruv organlarining tashkil etish tartibini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Konstitutsiyaning oxirgi oltinchi bo'limi esa, "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi"ga ajratilgan.

Konstitutsiya o'z mazmuni va ijtimoiy vazifasiga ko'ra davlatning mohiyatini

ta'riflovchi, uning tashkiliy tuzilishini ifodalovchi, davlat siyosatining asoslarini belgilovchi hujjat sifatida gavdalaniadi. Konstitutsiya o'z ijtimoiy vazifasini bajara borib, bir qator o'zaro mushtarak bo'lgan funksiyalarni ado etadi. Konstitutsiyaning eng muhim funksiyalaridan biri davlatchilik rivojlanishidagi vorislilikni ta'min etishdir.

Siyosiy funksiya. Konstitutsiya jamiyat siyosiy tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi; siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati bilan munosabatlarini muvoqiflashtiradi; saylovlari va referendum kabi bevosita demokratiya institutlarini mustahkamlash orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni, fuqarolararo totuvlik, hamjihatlik va tinchlikni ta'minlaydi; davlat yuritadigan ichki va tashqi siyosatning asoslari va barcha muhim yo'nalishlarni aks ettiradi.

Yuridik funksiya. Konstitutsiya yuridik mazmun va mohiyatga ega bo'lgan huquqiy hujjat bo'lib, davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o'zagini tashkil etadi, jamiyat va davlat hayotining, davlat organlari tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Shu sababli

jamiyatdagi barcha huquqiy hayot va yuridik amaliyot, shu jumladan odil sudlov amaliyoti konstitutsiyaviy qoidalar asosida shakllanadi.

Tarbiyaviy-mafkuraviy funksiya. Konstitutsiya xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Unda jamiyat taraqqiyotiga turki beruvchi, muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiluvchi g'oyalari o'z ifodasini topadi. Konstitutsiyada mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari yetaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy istiqlol g'oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etib, xalqimizning istiqolga, erkinlikka bo'lgan intilishini, milliy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi hamda ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham Konstitutsiyaning beqiyos qadr-qimmati va nufuzi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'mni va ahamiyati yillar o'tgani sayin tobora ortib bormoqda.

**Manbalar asosida "Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Saida ERGASHOVA tayyorladi**

## Istiqlolga ishonch ortdi

Birinchi navbatda, Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilishi ta'kidlandi. O'qituvchilarning maqomini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitusiyada alohida belgilash zarurligi qayd etildi.

Kelasi yildan boshlang'ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi. Prezident ta'kidlaganidek, bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlargacha, san'at va madaniyatga qiziqitirishimiz, o'quvchilarda erkin, tanqidiy va kreativ fikrashni, jamoada ishlash, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bois, 2023-yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanadi.

Kelasi yili 70 ta yangi maktab quriladi, 460 tasi kengaytiriladi. Xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanadi, kelasi besh yilda ularning soni 1000 taga yetkaziladi.

Qoraqalpog'iston va Xorazmda yo'lga qo'yilgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish amaliyoti kelasi o'quv yilidan qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etilishi xalqimiz kayfiyatini ko'targani aniq.

700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarurligi tilga olini. Bu maqsadda 2023-yildan boshlab yangi dastur amalga oshiriladi. Har bir viloyatda bittadan texnikumda Yevropa

kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Maktabgacha ta'limda bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardag'i ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi. Bog'cha qamrovini kengaytirish bo'yicha xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratiladi. Bu bilan farzandlarimiz bolalikdan bilm olishi, jamoatchilikka moslashish ko'nikmalarini asta-sekin shakllanishiga erishamiz. Zero, yoshlikda olgan bilim toshga o'yilgan naqshdir.

Murojaatnomada o'qituvchilar, pedagoglar mehnati, zahmati alohida tilga olini. Ularning tajribasini oshirish, el-yurt orasida obro'sini yuksaltirish, daromadlarini ko'paytirish lozimligi uqtirildi. Haq gap! Davlat ravnaqni, xalq barkamolligini kafolatlash uchun sohani isloh etish, kasb vakillari maqomini ko'tarish muhim masala.

Xullas, Prezidentimiz Murojaatida dolzarb vazifalar, yangi g'oyalar ilgari surildi. Yangicha qarash, yangi g'oya va yangi rejalgina davlatning istiqloliga, vatan ravnaqni va xalqimizning farovonligiga daxldor harakatlarni, amaliy natijalarni belgilab berishi aniq. Demak, aniq rejalar, shunga yarasha harakat va faoliyat bo'lishi, istiqlolli rejalar amalga oshirish borasida biz deputatlar ham mas'uliyatni oshirishimiz, dadil va xalqchil takliflarimiz bilan jamiyat rivojiga o'z hissazmni qo'shishimiz kerak.

**Ma'rufjon YULDASHEV,  
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar  
va ilmiy-pedagogik kadrlar  
tayyorlash bo'limi boshlig'i,  
filologiya fanlari doktori,  
professor**

## Tadbir Hamkorlik sari qadam

2022-yil 1-noyabr kuni "INFOLIB O'ZBEKISTON-2022" XI Milliy axborot-kutubxona haftaligi doirasida Moskva davlat madaniyat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Uch tomonlarga munosabatlarni rivojlantirish, axborot-kutubxona faoliyatining ta'lim, san'at, ilm-fan va madaniyat rivojidagi muhim o'rinn tutgan mazkur memorandum asosida qo'shma ilmiy tadqiqotlar, ijodiy loyihalari ustida ish olib borish, birligida tadbirlar o'tkazish, birligida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish, tomonlarning tajriba almashinuvni hamda axborot-kutubxona faoliyatida ilg'or yutuqlar va yangi texnologiyalarni joriy etish maqsadida qo'shma konferensiylar, o'quv tadbirlari va o'zaro tashriflar tashkil etish, ilmiy-malakaviy ishlarga taqrib yozish hamda ularga opponentlik qilish, qo'shma nashrlar tayyorlash hamda kasbiy, ma'rifiy, ilmiy va ijodiy salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida kelishib olini.

## Moskva davlat madaniyat instituti vakillari tashrif buyurdi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Moskva davlat madaniyat instituti rektori vazifasini bajaruvchi Yekaterina Kudrina, Moskva davlat madaniyat institutining fanlararo madaniyatni o'rganish markazi direktori, professor Natalya Gendina hamda "Kitobxonikni rivojlantirish" assotsiatsiyasi ijrochi direktori Anjela Lebedeva tashrif buyurdi.

Tashrif davomida mehmonlar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, ta'lim jarayonlari bilan tanishtirildi. Jumladan, ular oliygohning ijodiy ustaxonalardagi dars jarayonlarini bevosita kuzatdi hamda professor o'qituvchilar va talabalar bilan suhabat olib bordi.

Uchrashuv davomida ikkala oliy ta'lim muassasalarini rahbariyati tomonidan o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha kelishuvga erishildi hamda mehmonlarga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Rossiyalik mehmonlar institutda yaratilgan sharoitlardan hayratda qolganini ta'kidashdi.

Uchrashuv davomida ikkala oliy ta'lim muassasalarini rahbariyati tomonidan o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha kelishuvga erishildi hamda mehmonlarga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

# "ODOB" TUSHUNCHASI NIMA?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilarini tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 595-son qarorida davlat ishchilarining xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatiga doir qoidalarga rioya etilishi bo'yicha nizom havola qilingan. Mazkur hujjatning maqsad-muddaosi ajdodlar merosida talqin etilgan odob-axloqga tegishli asarga mutanosibligi bilan e'tiborlidir. Shundan kelib chiqib bugun bиргина "odob" tushunchasining leksik va semantik xususiyatlari haqida ayrim fikrlarni bayon qilamiz.

O'zbek tili og'zaki so'zlashuv va yozma nutqida odob-axloq so'zları juda faol ishlataladi. Xalq og'zaki ijodiga mansub maqol-u matallarning eng saralari adab, odob va xulq borasida aytigan. Bu ikki so'z sarlavha qilib olingen "Muqaddimat ul-adab" (Zamaxshariy), "Al-adab al-Mufrad" (Imom Buxoriy), "Tahzib ul-axloq" (Miskvayh), "Axloqi Muhsiniy", "Axloqi Nosiriy", "Makorim ul-axloq" (Xondamir), "Odob us solikin" (Muhammad Sodiq Qoshg'ariy), "Axloqi zamimalar" (Mirzoj Ho'qandiy) kabi kitob-u risolalar bor.

Odob-axloqni ulug'lovchi ajoyib ruboilyar, g'azal va manzumalarning qo'shiq qilib hofizlar tomonidan kuylanib kelinishi barchaga kunday ravshandir. "Odob" so'zi arabcha adab so'zining ko'plikdag'i shakli bo'lib, lug'atlarda yaxshi xulq, atvor, ilmi donish, bilim, tanbeh, tarbiya, ta'zir, jazo ma'nolarini bildiradi. Adabning ko'plik shaklidagi "Adabiyot" so'zi fors va turkiy xalqlarda adablar majmuasi ma'nosida ishlatsila, arablarda bu so'z "Adab" deyilib, badiiy adabiyot va she'riyatni anglatadi. Adab sohibi bo'lish barcha xalqlarda ulug' fazilat hisoblanadi. Adabli kishi tushunchasi madaniyatli, tarbiya ko'rgan, mukammal inson, yuqori axloqli shaxs ma'nosini ifoda qiladi.

Turmushda moddiy, huquqiy va ruhiy ehtiyojlar tufayli paydo bo'lgan, ko'philik tomonidan ma'qullangan, hayotga joriy qilingan foydali va bezarar amallar, muomala me'yordi yig'indisi odob deyiladi. Islom shariatida insonning amallari sakkizga – farz, sunnat, vojib, mustahab, mustahrak, mubah, makruh va haromga tasnif etilgan bo'lib, bulardan dastlabki olitasi bajaruvchilarga savob yoziladi, makruh va harom amallarni bajaruvchiga gunoh yoziladi, degan aqida mavjud. Ammo jamiyatda odobsizlik, hayosizlik, uyatsizlik hisoblanuvchi amallarni sodir etgan kishilar ayb ish qilgan sanalib, ularga savobkor yoki gunohkor deb hukmi berilmaydi, balki ixtiyoriy insofsizlik qilgani malomat qilinadi.

Jamoat ichida o'z nafsi odobsizlikdan, hayosizlikdan, uyatsizlikdan saqlab yasha-yidigan kishilarga odamlar hurmat bilan qaraydi, duo qiladi, barakalla deydi va ularga yaxshilikni ravo ko'radi. Odobsiz, hayosiz, diyonatsiz, uysatsiz kishilar jamoat ichida sharmanda, beobro', rasvo (aybi ochilgan) kishilar deb ta'riflaniadi. Gunohkor deyilmaydi-yu ammo, ularga odamlar hurmat-e'tibor, yaxshi amal-martaba, lavozimni ravo ko'rmaydi. Demak, jamiyat yoqtiradigan xattiharakat, so'z, rioya, ko'makdoshlik amallari odob doirasiga kiritiladi. Unga amal qilgan kishi beevaz, beto'lov, bepul yutuq va zafarga sazovor bo'ldi, odobsizlik qilgan kishi esa unday yutuqlardan mahrum bo'ldi.

С.И.Ожеговнинг "Словарь русского языка" kitobida "манера" so'zi "способ что-нибудь делать", "поведение", "образ действия", "внешние формы поведения" deb izohlanib, ular tarbtibilik, adablilik, odoblilik, maqtovga loyiq muomala usuli, o'zgalarga qulaylik tug'dirish, birovga xalaqit bermaslik, malol kelmaslik, o'zining tashqi harakatini chiroyli ko'rsatish kabi ma'nolarni bildiradi.

Kishi odobi, saranjom-sarishta, rioya-andishali, insofli bo'lsa, kasbidagi kam-chiliklarga qaramay, kishilar uni o'z safiga,



jamoaga tortadi, hurmatlaydi, unga ishonadi va suyanadi. Mutaxassis bilimi qanchalik kuchli bo'lmasin, muomalasi qo'pol, takabbur, beadab bo'lsa odamlar undan o'zini olib qochadi. "Dilozordan Xudo bezor", degan hikmatli so'z shunday odamlar qarata aytilgan. Odobsizlik, qo'pollik forslarda mardumozorlik deyiladi. Hofiz so'zi:

*May bixo'; Mushab biso'z, otash andar Ka'ba zan,*

*Sokini butxona boshu mardumozori makun.*

(Mazmuni: Mayli, may ichib, xaromxo'r bo'l, Qur'onning kitobat qilingan nusxasini yoqib yuborib, gunoh ish qil, mayli butxonaga kirib botil amal bilan vaqtinagi o'tkazgil, ammo kishilarga ozor yetkazuvchi bo'lmasang, bas).

Odoblilik o'rni kelsa kishiga oltinkumushdan ham ortiq boylik, izzat-hurmat keltirishi borasida Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir"da shunday yozadi: "Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin, Elning adabi xushroq erur oltunidin". Insonning odoblilikni nimalarda ko'rinadi? Orasta kiyinishinga, tozalikka rioya etishida, xushmuomalasida, kamtarligida, doimo yordamga shayligida, saxiyligida, shirinsuxanligida, xayrixohligida. So'fi Olloyorning "Sabotul-ojizin" manzumasida shunday satrlar borligi bejiz emas:

*Ochiq qo'lli, kushoda yuzli bo'lg'al,  
Muruvvatlig', muloyim so'zli bo'lg'al.*

Husaynxon Mushkin Toshkandiyning (Orifxon Hotamov musiqasi bilan Rasul qori Mamadaliyev ijro etgan) "Odob kishining qalbini oydek ziyo etar" ashulasi odobning fazilati, beadablikning karohati xususida saboq beradi:

*Odob kishining qalbini oydek ziyo etar;  
Xalq o'rtasida himmatini kimyo etar.*

*Har beadabni beshaku albatta, oqibat,  
Dunyoda beadablig'i baxtin qaro etar.*

*Sidqi dilidin aytadur ko'p zavq-shavq ila,  
Mushkin adab ahli uchun jonin fido etar.*

Xo'sh, inson odobi, axloqli bo'lishi uchun nimalarni bilishi kerak, uning ma'lum bir me'yori, aniq qonun-qoidasi bormi? Odobsizlikning chegarasi qayergacha? Albatta bor. Bu masala tasavvuf ta'limotida nafs tarbiyasi orqali oolib beriladi. Nafs tarbiyasi ayni insonning odobi va axloqiy me'yorlarini o'ziga ko'rsatib beradi. Buning uchun nafs mohiyatini bilmoq lozim.

*Agar obro'mand bo'lmoqni xohlasang, tavoze' va viqor, ya'ni vazminlikka odat qilgil.*

\*\*\*

*Agar yomonlik va uyatga firifta va mubtalo bo'lmaslikni xohlasang, hali qilmagan ishingni "qilganman" deb ovoza etmagil.*

\*\*\*

*Agar hamma odamlarni o'zingga do'st va oshno bo'lmos'ini xohlasang, hech kimning gina va adovatini ko'nglingda saqlamagil.*

\*\*\*

*Agar xaloyiqqa kulgu bo'lmaslikni xohlasang, yurish-turishingni yaxshi qilgil.*

\*\*\*

*Agar buzruk va donolardan bo'lmoqni xohish qilsang, o'z suratingni boshqalar oyinasida ko'rgil!*

\*\*\*

*Agar odamlarning eng yaxshisi bo'lmoqni xohlasang, molingni mumkin qadar odamlardan darig' tutmagil.*

\*\*\*

*Agar ko'nglingga hech bir jarohat yetmasligini xohlasang ablah va nodonlar bilan bahslashmagil, munozara qilmagil.*

\*\*\*

*Agar odamlar oralarida maqbul bo'lmoqni xohlasang karam va ehson qilmoqni ixtiyor etgil.*

**Ikromiddin OSTONAQULOV,  
tarix fanlari doktori, dotsent**

**Tarbiya – insonga o'zida yaxshi odat va insonparvarlik fazilatlarini hosil qilishiga ulkan yordam beradi.**

## Bog'chada san'at va madaniyatning o'rni

Bu borada oila muhiti ham asosiy rol o'ynaydi. Oilada muhit sog'lom bo'lsa, farzandning tarbiysi ham mukammal bo'ladi. Bola tarbiyani nafaqat oiladan, balki atrof-muhit, o'zi yashayotgan jamiyat hamda maktabgacha ta'lim muassasasidan ham oladi. Hozirda o'sib kelayotgan yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda oila bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim muassasalarining ham o'rni muhimdir.

Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim-tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, qalbi va ongiga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarini singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida dunyonli bilish va uni idrok etish borasidagi axborotning 70 foizini 7 yoshgacha bo'lgan davrda olishi, bola shaxsining rivojanishida maktabgacha ta'lim muassasasining o'rni nihoyatda muhimligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari har tomonlama sog'lom, teran fikrli bo'lib tarbiyalanishida madaniyat va san'atning ham alohida o'rni mavjud. Joylardagi madaniyat muassasalari ijodkorlari tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari ishtirokida kichik sahna ko'rinishlar, madaniy tadbirlar, ko'rik-tanlov hamda konsert tomoshalarini rang-barang va qiziqarli tarzda tashkil etish bolalar uchun ham qiziqarli ham maroqli bo'lish bilan birligida, ular orasida iqtidorlilarni kashf qilish va shakllantirishda amaliy qadam bo'ladi.

Bolaligimizdan sevib tinglagan "Zumrad va Qimmat" ertagidagi qahramonlarni barchamiz juda yaxshi bilamiz. Bu ertakda ikkita obraz, ya'ni ijobji rolda Zumrad, salbiy rolda esa Qimmat namoyon bo'ladi. Ushbu ertak alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, Zumrad odobi, tarbiyali, kamtar, mehribon va mehnatsevarligi natijasida ertak yakunida rag'bat topadi. Qimmat esa aksincha bo'lib, kattalarni hurmat qilmasligi, tarbiyasi, ishyoqmas dengasaligi sababli muammoga duch keladi.

Madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan teatr studiyalarida "Zumrad va Qimmat" kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab o'zbek xalq ertaklarini sahnalashtirish asnosida bolalarda zarur ijobji xislatlar va yaxshi fazilatlarini shakllantirish va yanada mustahkamlashda muhim amaliy vosita bo'lib qoladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hududiy madaniyat muassasalari hamda Bolalar musiqa va san'at maktablari bilan birligida bolalarga mos va qiziqarli bo'lgan ashula, raqs, cholq'u ijrochiligi, qo'g'irchoq teatri, tasviriy va amaliy san'at kabi to'garaklarni tashkil etish orqali muassasa tarbiyalanuvchilarini san'atga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish va ijodkorlikka mehr bog'lashlari uchun zarur manba bo'ladi. Yosh avlodni madaniyat, san'at, ijodga oshno qilish, bolalarni kelajakda yuksak ma'naviyatli, yetuk tarbiyali va o'z yurtiga sadoqatli inson bo'lib shakllanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

**Azizaxon ISMANOVA,  
"Madaniyat va san'at menejmenti"  
kafedrasi o'qituvchisi,  
"Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti sovrindori**

# FIDOYI VA ZAHMATKASH USTOZ

Yangi O'zbekiston islohotlarining muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rinnegallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lif-tarbiya sohasining rivoji bilan bog'liq, desak mubolog'a bo'lmaydi.



Chunonchi, davlatimiz tomonidan ta'lif-tarbiya muassasalariga katta e'tibor berilib, ularning moddiy-teknik bazasini mustahkamlash, muallimlar, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish, xorijdagi yetakchi ta'lif markazlari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish orqali soha fidoyilariga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ishlarning amaliy ta'siri va natijasini ta'minlashda o'qituvchi va murabbiylarning o'rni va roli beqiyosdir.

Shu nuqtai nazardan Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Jamiyatimizda bog'cha tarbiyachisi, maktob muallimi, olyigohlarning professor-o'qituvchilarini va ilmiy-ijodiy ziyo'lilarni bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansning to'rtayanch ustuni deb e'tirof etmoqdamiz", - deb aytgan so'zlarini eslash ayni muddaodir.

"O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz bir yilligi munosabati bilan fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat, san'at sohalarini va ommaviy axborot vositalar qodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, falsafa fanlari doktori, "Shuhrat" medali sohibasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Sayyora Suyarqulovna To'ychiyeva "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Fidoyi, zahmatkash ustozimiz o'z shogirdlariga bilim berish barobarida, ular qalbiga insoniy go'zal xislatafizatlarni, mehr-oqibat va odamiylik tuyg'ularini singdirib kelmoqda. Madaniyat va san'at, adabiyot sohalarida o'z iqtidori, mahorati va bilim salohiyatini bilan yuqori natijalarga erishib kelayotgan talaba-yoshlarning

muvaffaqiyatlari zamirida, avvalo bag'rikeng ustozi Sayyora Suyarqulovnaning xizmati katta.

Ustozlik oliy maqom va oliy saodat. Biz shogirdlarga sohada saboq berib kelayotgan, hayot yo'llarimizda chiroq yoqayotgan ustozlar hamisha-ki, e'tirofga munosib. Yangi O'zbekistonni qurishdek sharafli va mas'uliyatli kasbda sobitqadam bo'lgan, aziz ustozimiz Sayyora Tuychiyevaning kasbdagi mehnatlari e'tirof etilib, yuksak mukofot bilan taqdirlanishi, albatta, biz shogirdlarga ham quvonch baxsh etdi. Xalqimizda: "Ustozi otangdek ulug'", degan naql bor. Kim-ki, hayotda biror yutuqqa erishsa, kasbidan baraka topsa, uning qalbida ustozi bo'lgan mehr-muhabbat yanada tovlalar ekan.

Ustozi yozgan she'rlar bir nechta tillarga tarjima qilinib, adabiyot shaydolarining qalbidan joy olgan. Men Sayyora ustozning qoraqalpog'istonlik shogirdi sifatida "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlanganligini eshitib, boshim osmonga etdi. U shogirdlariga doimo "Jabbar" javobini berib kelgan. Har bir savolga erinmay javob beradi, yo'liyo'riq ko'rsatadi, ma'nun yordamini aymaydi. Ustozi, siz qoraqalpoq va o'zbek xalqi o'rtaida abadi do'stlik timsolisiz!

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtaida do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashda, shubhasiz "ustoz-shogird" an'anasing hissasi katta. Sayyora To'ychiyevaning kitoblari, ilmiy maqola va she'rlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib, qoraqalpoq yosholarning yorug'i istiqboli va ilmiy salohiyatini oshirishda mayoq vazifasini bajaryapti.

"Ishonchim komil, millati, tili va dinidan qat'i nazar, Vatanimizning har bir farzandini o'z bolasidek sevib, ardoqlab, ularni barkamol insonlar etib tarbiyalash uchun sidqidildan mehnat qilayotgan siz, hurmatli O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylari bu vazifalarni albatta sharaf bilan ado etasiz", - deydi hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Sayyora To'ychiyeva biz shogirdlarini o'z farzandidek sevadi, e'zozlaydi. Ustozi yaqinda "Madaniyat karvon" bilan azim Qoraqalpoq diyoriga tashrif buyurdi. Yig'ilganlarga o'z she'rlaridan o'qiganida, tomoshabin o'midan turib, davomli qarsaklar chaldi. Ustozi ijod namunalari xalqqa judayam manzur bo'ldi. Uchrashuvlar mushoiraga, qizg'in savol-javoblarga ulanib ketdi. Ustozi ko'plab she'rlari xalqimizning sevimli hofiz va san'atkorlarini tomonidan kuyga solinib, ijro etilgan va xalq qo'shiqlariga aylangan. Qoraqalpog'istonlik olim-u ziyo'lilar, taniqli adiblar, yozuvchi va keng jamoatchilik ustozi Sayyora To'ychiyevani yuksak qadrlaydi.

Ustozi! Siz xalqlar o'rtaida do'stlik daraxtisiz. Biroz dag'al bo'lsa-da, o'xshatma: sizning shoxingizda yetilib chiqqan biz kabi ko'plab shoxchalar bor. Bu shoxchalar esa shoxlardagi mevalarga, ya'ni yosh avlodga vatanparvarlik, xalqlar o'rtaida do'stlik va birodarlik g'oyalarini singdirishga intiladi.

Aziz ustozi! Sizga sihat-salomatlilik, baxt va omad, xonadoningizga tinchlik-xotirjamlik tilaymiz. Yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishda aslo xormang-charchamang.

**Asilbek QOLQANATOV,  
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"  
2-bosqich magistranti**



**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining O'quv teatrida tetar san'ati fakulteti "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasiga tashkilotchiligidagi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yosolar murabbiysi, professor v.b. Maryam Ashurova tavalludining 70 yilligi munosabati bilan ijodiy kecha o'tkazildi. Tadbirda institut rahbariyati, iqtidorli talabalar, el suygan xonandalar, so'z ustalari, Maryam Ashurovaning yaqin insonlari va shogirdlari ishtirop etdi.**



**Ijodiy kecha avvalida Maryam Ashurova hayoti va ijodiga oid videorolik namoyish etildi. Tadbir davomida yangragan diltortar kuy-qo'shiqlar tomoshabinlarga manzur bo'ldi.**

## MAKTAB KUTUBXONALARI

**Maktab kutubxonalarini, maktabning asosan o'quvchi va o'qituvchi, xizmatchi va qo'riqchilariga xizmat ko'rsatish, foydalanuvchilarni guruhlarga bo'lish va xizmat ko'rsatish, kutubxonachilik standartlariga va "Maktab kutubxonalarini to'g'risida"gi nizomga asoslanib fond tashkil etish, ta'limga qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kutubxonalardir. Shuning uchun aytish mumkinki, maktab kutubxonalarini asosan maktab xizmatlaridan foydalanadigan va unga xizmat ko'rsatadigan shaxslarning ta'limi ni qo'llab-quvvatlash uchun zarur.**

IFLA va YUNESKO maktab kutubxonalarining maqsadlarini quyidagicha belgilab berdi:

- maktabning vazifalari bilan birgalikda, o'quv rejasida ko'rsatilgan ta'lif maqsadlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlanish;
- bolalarda o'qish va o'rganish bilan bir qatorda kutubxonadan foydalanish madaniyati va zavqini rivojlanish va saqlash;
- bilim olish, tushunish, orzu qilish va zavqlanish maqsadida bilimlardan foydalanish va ijodkorlikni ta'minlash uchun imkoniyat berish;
- o'quvchilarni jamiyatagi mulogot usullariga sezgir, tuzilishi, shakli, mazmunidan qat'i nazar axborotni baholash va undan foydalanish ko'nikmalarini egallashga yordam berish;
- mahalliy, mintaqaviy, milliy va universal resurslardan foydalanishni ta'minlash orgali

foydalanuvchilarga turli qarashlar, tajribalar va fikrlarni ishlab chiqarish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etish;

• ijtimoiy va madaniy masalalardan xabardor bo'lishni ta'minlaydigan tadbirlarni tashkil etish;

• maktab kutubxonalarining resurslarini va o'qish zarurligini butun maktabga va qiziqqan har bir kishiga tushuntirish (IFLA, 1999).

Maktab kutubxonalarini yuqorida qayd etilgan maqsadlar bilan bir qatorda maktablarda ta'lif sifatini oshirish, o'quvchilar va foydalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shmaqda.

Ta'lif tizimlarini va o'quv dasturlarini boyitish, o'quvchilarning darslar bilan mashg'ul bo'lish bilan bir qatorda shaxsiy qiziqishlari uchun ham manbalarni taqdim etish, o'qituvchilarga, maktab xodimlariga, oila va jamiyatga xizmat ko'rsatish, turli axborot manbalarni o'rgatish

va ulardan foydalananishga yo'l-yo'riq ko'rsatish kabi xizmat tushunchasiga ega bo'lgan maktab kutubxonalarining ahamiyati shu o'rinda namoyon bo'ladı. Maktab kutubxonaları – bu oddiy tushuncha emas! U o'quvchilarga hayoti davomida axborot izlash va topish zavqini beradigan muassasadir. Ushbu kutubxonalar maktablar uchun ko'p qirrali va keng ko'lamli muloqot va tadqiqot orqali o'quvchilar uchun imkoniyat yaratuvchi muhim vositadir. Maktab kutubxonaları – o'quvchilarga o'qituvchilarini tomonidan berilgan bilimlarni mustahkamlaydigan yoki qo'shimcha ma'lumot oladigan, o'zlarining qiziqish va ko'nikmalarini rivojlanitaridigan, axborot ehtiyojlari va qiziqishlarni qondiradigan joydir. Bundan tashqari, maktab kutubxonaları nafaqat talabalar, balki xodimlar va ota-onalarga ham xizmat qiluvchi muassasa sifatida maktabning muhim elementlaridan biridir.

**Turk tilidan  
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lif  
yo'naliishi 4-bosqich talabasi  
Aziza NORMURODOVA tarjimasi**

## “Yil talabasi-2022”



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri tomonidan 2020-yil yanvarda tasdiqlangan “2020-yilda Yoshlar o'rtaida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo'l xaritasi”ning 8-bandida belgilangan vazifalar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2022-yil 23-sentabrdagi 315-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan “Yil talabasi-2022” respublika tanlovi institut bosqichi talabalari o'rtaida nizom talablari asosida 7 ta nominatsiya bo'yicha o'tkazildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, institutning “Yil talabasi-2022” tanlov komissiyasi tomonidan quyidagi nomzodlar g'olib deb topildi.

“Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi” nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 3-kurs talabasi MARATOVA NILUFAR LAZIZ QIZI, ikkinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 3-kurs talabasi KARIMOVA E'ZOZA NURIDDIN QIZI, uchinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Sa'nat sohasida prodyuserlik” ta'lif yo'nalihi 4-kurs talabasi PARDAYEVA MADINA MAQSUD QIZI;

– “Yilning eng faol targ'ibotchi talabasi” nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'ringa Teatr san'ati fakulteti “Dramatik teatr rejissorligi” ta'lif yo'nalihi 2-kurs talabasi ABDUG'ANIYEV ELYOR ALISHER O'G'LI, ikkinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” ta'lif yo'nalihi 4-kurs talabasi ERGASHEV ABDULAZIZ MAHAMMADJON O'G'LI;

– “Yilning engfaolsportchi talabasi” nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 4-kurs talabasi ISLOMOV MUHRIDDIN RABBIMQUL O'G'LI, ikkinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 3-kurs talabasi RAIMBERDIYEV SARVAR ULUG'BEK O'G'LI, uchinchi o'ringa Teatr san'ati fakulteti “Dramatik teatr va kino aktyorligi” ta'lif yo'nalihi 3-kurs talabasi RASULSOVA LAYLO ZAYNOBIDDIN QIZI;

– “Yilning eng faol ijodkor talabasi” nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'ringa Kino, televide niye va radio san'ati fakulteti kasb ta'lifi: Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi) ta'lif yo'nalihi 4-kurs talabasi XOLMIRZAYEVA NIGINA ZOXIDDIN QIZI, ikkinchi o'ringa Kino, televide niye va radio san'ati fakulteti “San'atda animatsiyaviy va multimediali loyihalash” ta'lif yo'nalihi 3-kurs talabasi INOMJONOV MAHMUDJON IQBOLJON O'G'LI, uchinchi o'ringa “Teatr san'ati” fakulteti “Grimm san'ati” ta'lif yo'nalihi 2-kurs talabasi ABSHUKUROVA MAHKAMOY MAMARAJAB QIZI;

– “Yilning eng namunalni tadbirkor talabasi” birinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” ta'lif yo'nalihi 4-kurs talabasi ABDULLAYEVA NASIBA IBROHIMJON QIZI;

– “Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi” nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 4-kurs talabasi SHUKUROV BUNYOD SHUHRAT O'G'LI;

– “Yilning eng faol iqfidorli talabasi” nominatsiyasi birinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 4-kurs talabasi MIRZAYEV SAMANDAR MALIKBOY O'G'LI, ikkinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 3-kurs talabasi TO'G'ONBOYEVA ZIYODA DILSHODJON QIZI, uchinchi o'ringa Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalihi 3-kurs talabasi OLIMJONOVA MARDONA HAMIDJON QIZI g'olib deb topildi.

“Yil talabasi-2022” respublika tanlovi institut bosqichi g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2022-yil 23-sentabrdagi 315-sonli buyrug'inining 2-ilovasida ko'rsatilgan Nizom asosida faxriy yorliq hamda har bir nominatsiya bo'yicha 1-o'r'in sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida, 2-o'r'in sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 6 barobari miqdorida va 3-o'r'in sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobari miqdorida moddiy rag'batlantirildi.



**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining uch nafar talabasi davlat stipendiyasi sohibiga aylandi.**

Jumladan, Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti 4-bosqich talabasi SHOVQIYEVA SHOHIDA O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibiga aylandi.

Shu bilan birga, Xalq ijodiyoti fakultetining 4-bosqich talabalari NORMATובה GAVHAR Navoiy nomli davlat stipendiyasi, ABDULLAYEVA NASIBA Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi.

INSTITUT RAHBARIYATI NOMIDAN TALABALARIMIZNI MUBORAKBOD ETAMIZ VA KELGUSI FAOLIYATIDA MUVAFFAQIYAT TILAB QOLAMIZ.

## Institutim, faxrim...

Har bir inson bu dunyoga kelganidan so'ng ulg'ayib, bilim va tafakkuri oshib, hayotga bo'lgan qarashi teranlashib boradi. Inson zinama-zina qadam bosar ekan o'z oldiga maqsad, vazifa qo'yadi. Yurtimizda bolalarga e'tibor katta. Biz yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar havas qilgudek. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ushu: “Eng katta me'ros – bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik esa – bu bilimsizlik. Shunday ekan, o'z ustimizda timmay ishlashimiz kerak”, – degan so'zleri ayni haqiqatdir.

Men yigirma bir yoshdaman. Shunga amin bo'ldimki, hayotda bilim doimo birinchi o'rinda turar ekan. Mutafakkir shoir Yusuf Xos Hojib aytganidek: “Bilim o'ylab ko'rilsa – misoli bir jilov. U barcha yomon yaramas ishlardan tiyb turadi. Bilim egasi o'z tilaklarini topadi, orzu maqsadlariga erishadi”.

Bilimsiz inson jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmaydi. Bilimning chek-chegarasi yo'q. Maktabni tamomlab, kollejga o'qishga kirganimda u yerdagi yuqori guruh o'quvchilarini jonli ijroda qo'shiq kuylayotganini ko'rib, qalbimda musiqaga mehr uyg'ondi. San'atga, bastakorlikka bo'lgan muhabbatim shu qadar yuqoriki, so'z bilan tasvirlab berolmayman. Oldimga ulug' maqsad qo'ydim. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hujjatlarimni topshirdim. Ikki yil institutga kirolmadim. Maqsadimdan chekinmay, yana olg'a qadam tashladim. Uchinchi yil mehnat va izlanishlarim samara berdi. To'lov shartnoma asosida o'qishga qabul qilindim. Bu xushxabarni eshitganimda quvonchdan ichimga sig'may ketdim.

Joriy yilning 5-sentabr, ya'ni mustaqillik darsi kuni institutga keldim va bu yerdagi qulay shart-sharoitlarni ko'rib niroyatda sevindim. Ustozlarni talabalarga bo'lgan chiroli muomalasi, qaynoq mehri, yuksak bilimi meni o'ziga maftun etdi. Ustozlardan Aziza Isanova, Xolmo'minov Mo'minmirzo, Hamidullo Ubay-

dullayevning dars mashg'ulotlari mena o'z-gacha zavq bag'ishlaydi. Institutimiz 2012-yil qayta qurilgan va barcha shart-sharoit yaratilingan. Hududda 10 ta bino qad ko'targan. Yotoqxona bilan birgalikda sport zali, suv kompleksi, kutubxona va o'quv teatri binosi bor. Kutubxonaga kirib kitob o'qisangiz, sizga bepyl kofe hamda velosiped haydash imkonи beriladi. Kutubxonadan istagan kitobingizni topasiz, hatto, noyob nusxadagi kitobni ham. Agarda izlayotgan kitobingiz javonda bo'lmasa, kutubxonaning telegram guruhidan kitobning elektron variantini topishingiz mumkin. Men shunday oliy ta'lif muassasasida tahsil olatyotganidan faxrlanaman.

Institutimiz hovlisida chet eldan keltirilgan har xil turdag'i daraxtlat mavjud. Ta'lif maskanim tasvirlab berayotganimdan-da, chiroli. Men shunday oliy ta'lif muassasasida tahsil olatyotganidan baxtiyorman. Fursatdan foydalanib, bunday imkoniyatlarni biz yoshlarga yaratib berayotgan Prezidentimiz hamda institutimiz rahbariyatiga, professor-o'qituvchilarga, mas'ul xodimlarga o'z minnatdorchiligidagi bildirmoqchiman. Va bunga javoban men ham ta'lif maskanimga munosib talaba bo'lishga va'da beraman.

**Shahobiddin SHODIYOROV,**  
“Madaniyat va san'at sohasi  
menejmenti” ta'lif yo'nalishining  
1-bosqich talabasi



Doniyor MIRZO,  
“Teatr san‘ati” mutaxassisligi  
2-bosqich magistranti

## Och bo‘rīl (ertak)

Qadim o’tgan zamonda  
O’rmon degan tomonda  
Ko’p jonivor bor ekan,  
Yegulikka zor ekan.  
Ochlikdan qurib sho’ri,  
Uvillarmish och bo’ri.  
Qor yalab to’ymas ekan,  
Nafsi tinch qo’ymas ekan.

O’lja izlab ketibdi,  
Bir manzilga yetibdi.  
Quvonibdi u yana,  
Oldinda keng qo’yxona.  
Hovli tomon shoshibdi,  
Devoridan oshibdi.  
Hovli juda keng ekan,  
Qo’ylar yuzga teng ekan.  
Zo’r ko’rinib ko’ziga,  
Tashlanibdi qo’ziga.  
Qo’ylar har yon qochibdi,  
Bo’riga yo’l ochibdi.  
Qo’rqudan, qotib – shu chog’,  
Qocholmabdi qo’zichoq.  
Shirvoz ekan barracha,  
Suyagi yo’q zarracha.

Qo’zini bo’ri yebdi,  
Maza ekan-a, debdi.  
Shu zayl tong otibdi,  
Bo’rivoy dong qotibdi...  
Chang chiqarib inidan,  
G’ajib, chaynab junidan,  
Oyga qarab uvlarmish,  
Tushida it quvlarmish...  
Qarang, taqdir ishi-da,  
Miltiq to’rtta kishida.  
Manglayiga o’qtalib  
Turgan emish tushida...  
“Urib sindir tishini,  
Kirgizib qo’y hushini!”  
Bo’rivoy o’sha damdan  
Qo’rqrar, itdan, odamdan...  
Cho’pon turib o’rnidan,  
Torfib itning burnidan,  
Debdi: “Bo’ri kepti-ku,  
Qo’zichoqni yebdi-ku.  
Nima qilding qaramay,  
Qo’riqqa ham yaramay?  
Qo’zi qo’chqor bo’lardi,  
So’ysam qozon to’lardi.”

It turardi qaqqayib,  
Cho’pon-chi, itin koyib.  
Akilla ochib og’iz,  
Itmisan yo yalmog’iz?  
Tur, yo’qol, deb baqirdi,  
So’ng o’g’lini chaqirdi.  
O’g’lim, opkel, kaltakni,  
Savalaylik bu sakni!

Oshxo’rni bir do’pposlاب،  
Xumordan chiqay boplab.  
O’g’li zumda yugurdi,  
Kelib itni bir urdi.  
It qochardi shing’illab,  
Ullar quvdi zing’illab.  
Itni rosa quvishdi,  
Oyoqlari uvishdi.

“Yalqov, xumpar, yaramas,  
Tunda qo’yga qaramas...  
O’g’lim, kesib shotutni,  
Urib o’ldir bu itni!”  
O’g’liga buyruq berdi,  
Uyiga tomon yurdi.  
So’ng to’xtadi u taqqa,  
O’g’lim, kel, der, bu yoqqa.  
Dori berib bu itga,  
Osib o’ldir shotutga!  
Sovuq edi, qish edi,  
Ayozlari xush edi.  
Cho’pon esa badjahl,  
O’g’li ko’ngli bo’sh edi.  
Otasiga bildirmay,  
Itni osib o’ldirmay,  
Bitta qo’zi so’ybidi,  
So’ng qopqonga qo’ybidi.  
Kuchukni chetga boylab,  
O’qotarga o’q joylab,  
Kuzatarmish uxlamay,  
Bo’rini tunda poylab.  
Bo’ri hech kelmas ekan,  
U bola bilmas ekan.  
Bo’ri ham ayyorlikda  
Tulkidan qolmas ekan.  
Uch kecha-ku, o’tibdi,  
To’rtinchı tong otibdi.  
Beshinchı tun bola ham  
Uxlagani yotibdi...  
Oltinchı oqshom chog’i  
Qorli o’rmon quchog’i.  
Qunishib bo’ri, muzlab,  
Charchabdi o’lja izlab.  
Dam olay desa biroz,  
Qichqirib qopti xo’roz.  
“Qu-qu”lab, bir kelsaydi,  
O’ljam xo’roz bo’lsaydi.  
Yulib tashlab patini,  
Ko’rsam, maza, totini.  
Bo’lardi ovning zo’ri –  
Debdi shunda och bo’ri.  
Oy chiqibdi osmonga,  
Nur-ziyo berib jonga.  
Bo’ri oyga uvlarmish,  
Ko’zlar to’lib qonga.  
U ochlikka chidolmay,  
Yo’l yurib, yo’ldan qolmay,  
Duch kelib bir kirpiga,  
“O’rmonga menman ega!  
E kirpijon, kirpijon,  
Ketayapsan ayt, qayon?  
Qo’lingni ber, paxmog’im,  
Erkatoym, ahmog’im”, –  
Deya avray boshlabdi,  
Kirpini bir tishlabdi.  
Kirpi ham g’ujanak bo’p,  
Yengilaymi sendan, deb,  
Ayamay shirin jonin,  
Sanchar emish tikonin.  
Sillamas, qurib sho’ri,  
Qochib qopti och bo’ri.  
So’ng arining iniga  
U dumini tiqibi.  
To’rtta ari ving’illab,  
Dumidan xo’p chaqibdi.  
Dumi go’yo tarasha  
Misol qotib qolibdi.  
Qilmishiga yarasha  
Bo’ri jazo olibdi.



## Mushoira

Nizomiddin ESHMURADOV,  
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil  
etish va boshqarish” yo’nalishi 3-bosqich talabasi

### Odamlar

Sizga insof bersin, sizga baxt bersin,  
Sizga sabot bersin, sizga taxt bersin,  
Vafosi yo’q intim, sizga ahd bersin,  
Yiqlsam ustimidan kulgan odamlar.

Biroz shoshildingiz, biroz shoshdingiz,  
Qaynamasdan turib birdan toshdingiz,  
Haddingizni bilmay haddan oshdingiz,  
Menga nohaq tuhmat qilgan odamlar.

Ayiqday salqinda elib yotdilar,  
Qadrinmi bozorda tekin sotdilar,  
Ortimdan ayamay toshlar otdilar,  
Yonimda do’st bo’lib yurgan odamlar.

Ayting, ko’zlarimda nima gunoh bor?  
Mening so’zlarimda nima gunoh bor?  
E-voh, ishonmasang ana guvoh bor,  
Yiqlsam yomonlik qilgan odamlar.

So’zlasang, eng go’zal fikrlar bo’lsin,  
Lafzi halol zotga zikrlar bo’lsin,  
Xudoga ming qatla shukrlar bo’lsin,  
Yiqlsam madadkor bo’lgan odamlar.

Armonim yo’q meni, yo’qdir arzim ham,  
Sizlar bor, ko’nglimni yengolmas g’amlar.  
Bilaman, sizlardan qarzim ko’p meni,  
Yiqlsam yonimda turgan odamlar.

Biroq istamadi Tangrim,  
Na iloj?!  
Qarshi chiqmoq dushvor, hammasi ayon...  
Sevgimiz tariqning donalariday  
Sochilib ketdilar  
bir zumda har yon.  
Yig’ib ololmaymiz,  
Yo’q, urinma, qo’y...

2022-yil noyabr-dekabr  
№ 11-12 (115)



### Unutmoq

Men sizni unutsam kulib, quvonib,  
Yo’qlamay qo’ysam ham yilda bir bora.  
Meni unutmaysiz, bilaman axir,  
Meni unutmoqqa yo’q sizda chora.

Mayli, kulib yuring mendan uzoqda,  
Mayli, men tomonga tushmasa ham nur.  
Sensiz otayotgan tongda shodlik yo’q,  
Olgan nafasim ham bermaydi huzur.

Ming bor yiqlsamda turmoq istadim,  
Istading qalbingni menga bermoqni.  
Muhabbatning ajib o’ylari aro  
Istadik ikkımız birga bo’lmoqni.

Armonim yo’q meni, yo’qdir arzim ham,  
Sizlar bor, ko’nglimni yengolmas g’amlar.  
Bilaman, sizlardan qarzim ko’p meni,  
Yiqlsam yonimda turgan odamlar.

Odiljon AHADOV,  
“Qo’g’irchoq teatr aktyorligi”  
yo’nalishi 4-bosqich talabasi



Sadoqat KOMILOVA,  
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta’lim  
yo’nalishi 1-bosqich talabasi

### “Yomg’ir”

Osmanni qopladi qop-qora bulut,  
Quyosh ham berkindi bir xilvat yerga.  
Yomg’ir yog’ar edi saqlamay sukut,  
Daryo dengizga va quvnoq soyga.

Yomg’ir yog’ar edi parvo qilmasdan,  
Bepayon dalaga so’qmoq yo’llarga.  
Yomg’ir yo’g’ar edi tinim bilmasdan,  
Yog’ardi shovullab o’tli dillarga.

Muhammad sollallohu alayhi  
vasallam hadisda “Banda to tilini  
saqlamagunicha haqiqiy iymonga  
erishmaydi”, deb ta’kidlaganlar.  
Yana bir hadisda “Bandaning iymoni  
to’g’ri bo’lmaydi to qalbi to’g’ri  
bo’lmaqunicha”, shuningdek,  
“qalbi to’g’ri bo’lmaydi to tili  
to’g’ri bo’lmaqunicha”, deb tilni  
to’g’ri pokiza so’zga undaganlar,  
payg’ambarimiz. Darhaqiqat, tilimiz  
orgali jaranglaydigan yaxshi so’zlar,  
dilimizni ravshan qiladi. Alloh

tomonidan inson zotiga berilgan  
ajoyib ne’mat, bu til-zabondir.  
Til orgali chiqadigan yaxshi so’z  
insonni yaxshilikka, ma’naviy  
yetuklikka undaydi.

Tig’ jarohati bitadi, ammo til  
jarohati bitmaydi. Til jarohatiga  
ehtiyot bo’laylik. Zero, dog’li so’z  
inson dilini vayron qilmasin.

Ahorbek INOMJONOV,  
“Madaniyat va san’at sohasi  
menejmenti” ta’lim yo’nalishi  
1-bosqich talabasi

## Til ofati



Til – jamiyat hayotini go’zal-  
lashtiradigan, insonlar o’rtasida  
o’zaro ishonchni mustahkamlovchi  
omil sanaladi. Shu bilan bir  
qatorda, buzg’unchi mafkuraviy  
go’yalarni insoniylikdan  
chiqarib yuborishi ham mumkin.  
Bu til ofatlari sirasiga kiradi.  
Bizni yaxshilikka va badbaxlikka  
eltuvchi ham tilimizdir. Bu

buyuk ne’matning hisobsiz  
foydasini bo’lganidek, zarari ham  
shunchadir. O’tmishda, bu til  
bilan ummatlar saodat topgan  
yoki aksincha, qanchadan-  
qancha xalqlar Alloh taoloning  
azobiga mana shu til tufayli ziyon  
ko’rgan. Shu sababli, muqaddas  
dimimizda tilni tiyishga alohida  
e’tibor qaratiladi: Payg’ambarimiz

# O'z she'riga o'zi yig'lagan shoir...

**O'zbekiston xalq shoiri, elimizning sevimli farzandi Muhammad Yusufning she'rlarini yod olmagan, qo'shiqlarini sevib tinglamagan inson bo'lmasa kerak. Uning sodda, ravon va xalqchil she'rlarida kattayu kichik o'z dardu tashvishini, quvonchu shodligini his etadi, shuning uchun ham har bir satrini yuragiga joqildi.**

**Bugungi suhbatdoshimiz xalqimizning ana shunday erka shoiri Muhammad Yusufning hayotiga yelkadosh va hamnafas bo'lgan rafiqasi, shoira, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibasi Nazira as-SALOMdir.**

– Nazira opa, siz juda go'zal adabiy muhitda kamol topgansiz. Oi langizga, qalbingizga, ishqingizga munosib yigit bilan ilk uchrashuvning qay tarzda kechgan, demoqchimanki, she'riyatga oshufta dilingiz uni qanday tanigan?

– Avvalo meni suhbatga chorlaganingizdan mammunman. Chunki bugun yaqinlarimni xotirlash hayotim mazmuniga aylangan va bu menga 21 yillardiki, taskin berib keladi. Shunday yaqinlarimidan biri, albatta, umr yo'ldoshim!

Toshkent shahridagi mashhur "Navoiy-30" deb nomlanuvchi nashriyotlar uyining 3-qavatida, "O'qituvchi" nashriyotida talabalik yillarimdayoq, ya'mi 2-kursda sirtdan o'qib yurgan kezlarimda ish boshlaganman. Nashriyotlarning barcha xodimlari shu binoning oshxonasiga tushlik qilgani tushishardi. O'sha kuni men ham hamkasb dugonalarim bilan oshxonaga otlandim. Egnimda harir ko'ylik, sochim mayda o'rillgan, boshimda do'ppi, nozikkina qiz edim. Negadir do'ppi kiyish urf bo'lmasa ham bu menga yoqardi. Hatto gohida zamonaviy kiyunganimda ham boshimga do'ppi kiyib olardim.

O'sha kuni oshxona eshididan nariroqda 3-4 nafar yigitlar bahslashib turishganini sezmay o'tib ketayotganimizda ulardan biri menga qarab nimadir dedi. Men indamay, qaramasdan yo'llimda davom etdim. Taomlanib bo'lganimizcha yarim saatdan ko'proq vaqt o'tdi. Qaytib chiqayotganimizda esa eshilq oldida bir qorachadan kelgan ozg'in yigit turganiga ko'zim tushdi. U kutilmaganda menda gapi borligini aytili, uni tinglashimni iltimos qildi. Men esa yana indamay o'tib ketaverdim. Keyinchalik bilsam u yigit meni birinchi ko'rganidayoq yonidagi do'stariga: "Mana shu qiz menin taqdirim. Ko'rasizlar, shu qizga albatta uylanaman!" degan ekan. Shu tariqa u yigit meni ko'pincha bekatlarda kutib turadigan bo'ldi. Ammo men o'zimni ko'rmasanga olib, sekgingina qochib qolardim.

Nashriyot binosining uchta eshigi bo'lib, men ishdan so'ng atay har xil eshiklardan chiqar, tramvayda (16-tramvay men yashaydigan Bodomzor mahallasigacha yurardi) ketayotib, u yigitning meni kutib turganini ko'rardim.

*Bekatlarda men qolaman-da  
Aytar so'zim qolib ketadi.  
Tramvaylar seni har kuni  
Bodomzorga olib ketadi –  
she'ri o'sha paytlari yozilgan.*

Keyinchalik bilsam, harbiy xizmatga ketgan ekan. Oradan 2 yil vaqt o'tgach, u yana bizning binoda paydo bo'ldi.

Yigit endi uzoqdan meni kuzatayotganini, yonimga kelolmasa-da, nigohlarini sezib turardim. Ammo dadil yonimga kelolmasdi. U juda tortinchoq ko'rindari.

Kunlarning birida yurdoshim Baxtiyor aka Muhammadiyev bilan so'rashib o'tarkanman, Baxtiyor aka, bu xonadoshim Muhammad, tanshinglar, o'zi andijonlik, dedi. Keyin bilsam, u Nazira bilan tanishtirib qo'y, deb bir necha bor iltimos qilgan, Baxtiyor aka, yo'q, u senga to'g'ri kelmaydi, deb paysalga solib kelarkan.

Shu-shu, Muhammad aka yo'lakda uzoqdan ko'rsa ham, sal egilib so'rashadigan bo'ldi. U juda kamgap va tortinchoq ko'rindari.

Kunlardan bir kuni "Almanax" jurnalini xonamga olib kirdi-da: "She'rlaringiz chiqibdi. Olib keldim", deb mendan suyunchi oldi. Men jurnalni varaqlarmanman, Muhammad Yusupov yozuviga va suratiga ko'zim tushib: "Bu sizmi? Siz ham she'r yozasizmi?" dedim. U kulisirab, ha, deganday ishora qildi. Shundagina uning ham she'rlar yozishini bildim.

Muhammad aka tanimasdan, oilamni bilmasdan umriga yo'ldosh qilib meni tanladilar. Bir ko'rishdayoq qaror qabul qilganlar. Yana men ijodkor sifatida ham qadrlashlarini ko'p bora isbotlaganlar. Ularning siyimosida orzuimdagini insonni ko'rganman.



she'r yozilganini ko'rdim. Uni o'qir ekanman, ko'zlarimdan tirkirab yosh quyildi. Bu she'r kechagi holatning mahsuli edi:

*Shuhratga o'ch bo'lsam kerak men gumroh,  
Yolg'on bo'lsa kerak dilda nolam ham.  
To'pori baytlarim bitar paytim goh,  
Ko'zimga ko'rinnay qolar bolam ham.  
Olamni erkalab, erka so'z izlab,  
Bolamni erkalab bir so'z aytmayman.  
Mushukday suykalib kelsa ham, muzlab,  
Betidan bir o'pmay uydan haydayman.  
Burchak-burchakda jim tortishar burun,  
Bilmam, qanday o'yu xayol ichida.  
Tuzsiz she'rlarim deb shirindan-shirin  
Qizlarim yurishar oyoq uchida.  
Ular she'r yozmasin hech menga o'xshab,  
Mendan nafi ko'proq tegar elimga.  
Shoh asar bo'lsa ham, tupurdum o'sha –  
Bolamni yig'latib yozgan she'ringa.*

Ularning o'zi bilan o'zi qolishini, yangi she'r dunyoga kelishining ruhiy holatlarini o'zimga e'tiborsizlik deb tushunsam, men ijodkor bo'lmasdim va zo'r shoirni yo'q qilgan bo'lishim mumkin edi...

**– Muhammad Yusufning qizi bor xonadonlarda gulu rayhonlar unishi haqidagi betakror satrularini har bir qiz yoddan aytadi, desa mubolag'a bo'lmaydi. Shoiring ota sifatida qizlariga munosabati, muhabbat qay darajada edi?**

– Muhammad akaning ota sifatidagi qizlariga munosabati, muhabbat kamdan-kam otalarda bo'lsa kerak. Ularni yaqindan taniyidigan ijodkorlar, hamqishloqlari, do'stlari bunga ko'p bora guvoh bo'lishgan. U kishi uchun qizlarining gapi gap, so'zi so'z, ya'mi, nima xohish-istagi bo'lsa muhayyo qilar edilar. Bir kuni kenjatoyim Madina nimadir olib bering, deb xarxasha qilibdi (menden buni sir tutishardi). Hazillashib, buning hozir iloji yo'q, debdilar. Qizim esa arazlab olibdi. Muhammad aka xarid uchun bozorga ketdilar-da, qaytib kelib, kichkina paketni qizimning qo'liga tutqazdilar. O'zing oshib, mevalarni joyla, dedilar. Qizim xo'mrayib, oshxonaga kirib ketdi-da, birdan "Urreyeyeye" deb qichqirib yubordi. Bilsam, mevalarning ichiga Madina so'ragan narsasini solib qo'ygan ekanlar.

Muhammad aka ularni nafaqat erkaldilar, shu bilan birga, ularga kattalarday muomala qilardilar. Oilaga daxldor biror reja bo'lsa meni ham, qizlarni ham yig'ib, har birimizdan fikrimizni so'rardilar. Ayniqsa, to'ng'ichimiz Ma'sudanining har bir gapini jiddiy qabul qilar, kichkinalarning ham fikrini so'rav qo'yardilar, negadir.

Do'rmondagi Yozuvchilar bog'idagi kottejimza yoz, bahor, kuzda hammamizni olib ketar, qizlarga mashina haydashni, futbol o'ynashni o'rgatar, hatto qozonda ovqat qilishni o'z zimmasiga olardilar.

Bog'imizga har xil sabzavotlar ekishar, parvarishlashar, qizlari bilan birga yig'ishtirib olayotganlarida quvonchlari ichiga sig'masdi. Ba'zida "Oqtosh", "So'qoq" dam olish masnalari olib borardilar.

Katta qizimni uzatganimizda hech ko'nikolmadilar. Har hafta uyiga borib, ko'rib kelardilar. U birinchi farzandi Bilolni dunyoga keltirganida men Andijonda bo'lganman. Kelgunimcha undan xavotirlanib, tug'ruqxonaga borib, qudalar bilan tonggacha o'tirib chiqibdilar.

Tug'ruqxonadagi ayollar hayron bo'larmish, tanib qolib, derazadan qarasharmish.

– Ijod ahli borki, ko'ngil kishisi bo'lganligi bois juda mehrtalab, etibortalab bo'lishadi. Ular uchun na moddiy boylik, na to'y-tomoshadagi oldi-berdilar ahamiyatsiz. Hayotiy tajribangizdan kelib chiqib aytung-chi, shoirning rafiqasi qanday bo'lishi kerak?

– Shoiring har bir she'rinning mavzusi odamlar yuragidagi dardni, iztirobni, quvonchni sodda va ravon tilda ifodalaydi. Ammo abadiy ayrilqin ifodalovchi satrleri borki, ular kishida o'z taqdirini oldindan bilganday taassurot uyg'otib, yurakka og'riq soladi...

– Bilasizmi, xalqda "Shoirning avlyiodurlar!" degan naql bo'r. Muhammad aka bir intervusida aytgandilar: "Shoirlar she'rni o'zlarini yozmaydilar. Kimdir aytib turadi. Bo'lmasa nega o'zingning she'ringa o'zing yig'laysan..."

Yana bir intervudu aytadilar: "She'r bu duo! Ehtiyyot bo'lish kerak!"

Siz aytgan bashoratgo'y she'rlarning ko'pi yoshligida yozilgan. Lekin o'qisangiz, seskanib ketasiz. Aslida u she'r ham tasodifan yozilmagan.

Xulosa qilish mumkinki, asl shoirlar bashoratgo'ylardir. Ular o'z hayotlarini oldindan bashorat qiladilar, his qiladilar, kelajakni ko'ra oladilar...

**– Xalqimiz tilida aytganda, bugun shoirning oxiri obod, uyi chiroqlari yoniq, xotirasni abadiy tillarda va dillarda. Uning ishini shogirdlari, siz va qizlari davom ettirayapsizlar. Farzandlar, nevaralar chehrasida, kamolotida, xislatlariku xattaharakatlarida bobosiga o'xshashlikni ko'rganingizda ko'nglingizdan nimalar kechadi?**

– Bilasizmi, hayot o'zi muallim, deydi: Yoshing ulg'aygan sari xulosalaring o'zgarib borar ekan. Bugun farzandlar yagona ovunchog'im, quvonchim, nevaralar hayotimning mazmuniga aylangan.

Yuragimdag'i eng katta qo'rquv – otasining qalamli stolda qolib ketarmikin, degan hadik edi. Yaratganga shukrki, bu masalada hayot meni siylidi: kenja qizim Madina abadiyot, she'riyat ixlosmandi. U betakror she'rlar yozib, qalbimning tubidagi armonlarimni aritdi.

Nevaram Bilol ham she'rlar yozadi. Faqat hozircha oshkor qilmayapti. Bir kuni iste'dodi bo'y ko'rsatishiga ishonaman. Otasi to'ng'ichim Ma'sudanining telejurnalist bo'lishiga ishonib, duo bergenlar. Nozimam otasining qadrondan do'sti Sirojiddin Sayyidning yordamida faoliyat yuritmoqda. Otasining ziyyaratiga keluvchilar bilan suhbatlashib, otasini ko'rganlardan kuch olib, quvonib yashamoqda.

Nevaram Filiz esa qaynonamming fe'l-atvorini ko'chirib olgan: og'ir, mulohazali, zehnli, dono. Uning siyimosida qaynona oyijonimni ko'raman. Islombeqim esa boy bo'laman, dodamning muzeynini quraman, deydi.

Xullas, ularning har birida Muhammad ayaning bir bo'lagi bor.

Uning ruhlarini shod qiladigan farzandu nabiralar tarbiyaloyganimdan g'ururlanib o'yaman.

Men ular bilan tirikman!

**– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusufning yuksak ijodiy faoliyatida Sizdek sevimli rafiqasining hissasi ulug'ligini e'tirof etib, sizni ham "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlagan edilar. Albatta, shoiring ayoli uchun bu – ulkan baxt, shunday emasmi?**

– Ochig'i, bunday taqdirlovni kutmagan edim. O'zbek ayoli aslida eri uchun nimaningdir ilinjida mehnat qilmaydi va bu mehnat doim pinhona bo'lib kelgan.

Prezidentim ijodkorlarimizni qadrlob kejar ekanlar, bu ijodkorning orqasida barcha mashaqqatni teppa-teng tortib kelayotgan rafiqalari ham qadrланishi kerak, degan so'zlarini katta sahnadan baralla aytdilar. Bu tarixiy voqealib o'ldi.

Men "Fidokorona xizmatlari uchun" ordenini nafaqat ijodkorning ayoli sifatida, balki ijodkor ayloning ham mehnatlari haqqi-hurmatiga berildi, deb qabul qildim. Chunki Prezidentim mening ko'ksinga ordenni taqayotib: "Men sizni qanday taqdirlashni uzoq o'yladim. Siz shunga loyiqsiz!" dedilar. Demak, ular mening ijodkor ekanligimi ham e'tiborga olnalar, degan xulosaga keldim.

Bu ijodkorning ayoli uchun ham, ayol ijodkor uchun ham katta e'tibor!

Adabiyotga daxldor insonlarning qadrланishi bu – ma'naviyatning qadrланishi, deb o'yayman va zuukko Yurtboshimiz bu ishlarni yoshlarning tarbiyasiga yo'naltirmoqdar!



Yilning boshlanishi turli xalqlarda har xil vaqtga to'g'ri keladi. Ko'pchilik mamlakatlarda, xususan, Yevropa mamlakatlari har yili Yangi yilni milliy bayram sifatida 1-yanvar kunida nishonlanadi. O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda Navro'z bayramini yangi yilning kirib kelishi tariqasida qadimdan keng nishonlanadi.

Qadimgi Bobil va qadimgi Misrda miloddan avvalgi 3000 yillikda birinchi marta nishonlanishni boshlagan. Garchi yangi yil sanalar ma'lum sivilizatsiyalar va madaniyatlarda turlicha nishonlangan bo'lishiga qaramasdan bayramning tub mohiyati bir xilligicha qolib kelgan, ya'ni yangi yil bu yangilanish, yangi maqsadlar va o'tgan yilda qilingan ishlari yuzasidan ijobjiy tahlil qilishga asoslangan. Masalan, Qadimgi Misrda Yangi yil bayrami Nil daryosining eng to'libtoshgandavriga, ya'ni sentabr oyalariga to'g'ri kelgan bo'lib, misrliklar uchun bu davr dehqonchilik yangi davrni boshlanishi hisoblanib, Ra xudosi sharafiga bayram o'tkazilib qurbanliklar qilingan. Bobilda Yangi yil bahorning birinchi oyidagi yangi oyning tug'ilishi davriga to'g'ri kelib dehqonchilik uchun yangi davrni boshlanishi bo'lib, Yangi yilda dehqonchilikni mo'l-ko'l bo'lishimi so'rab ma'budlar sharafiga qurbanliklar qilingan bayram qilingan. Bizning qadimgi O'rta Osiyoda Yangi yil zardushtiylik udumlariga ko'ra bahorning dastlabki oyalarida nishonlangan bo'lib, ko'kalamzorlikning kelishi va tabiatning uyg'onishi sifatida nishonlangan.

Tarixda birinchi marta rasmiy jihatdan Yangi yil bayrami qadimgi Rim imperiyasida Yuliy Sezar tomonidan mil. avv. 46-yilda ta'sis etilgan bo'lib, u 1-yanvar deb e'lon qilingan. Bu

bayramga asos qilinib qadimgi Rim xudolaridan biri Janus xudosi olingan bo'lib, u yangi yilning boshi va eski yilning oxirida tug'ilganligi aytildi. Uning yuzi ikki tomonlama bo'lib, biri yuzi eski yilga, ikkinchi yuzi yangi yilga qaratilgan bo'lgan. 1-yanvar kuni qadimgi Rimda katta bayram tashkil etilgan. Janus xudosi sharafiga turli xil sovg'a-salomlar ulashilgan. Lekin shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish lozimki, Rimliklar kalendar bo'yicha yanvar oyi hozirgi dunyoda ishlatiladigan Grigorian kalendarining mart oyiga to'g'ri kelgan.

Oollohning kuni hech qachon bir joyda to'xtab turmas ekan. Qayg'uli tunlar ham, shodumon kunlar ham bir daqqa bo'lsin to'xtamas ekan. Yer shari singari betinim aylanar, uning aylanishi hech kim sezmagani kabi hash-pash deguncha, oradan bir yil o'tib ketganini ham hech kim sezmay qoladi. Baxtiyor kunlar tez o'tadi, ammo qayg'uli dam, yelkaga otilgan xarsang, yurak-yuragingni qaqshatadi.

Yangi yil. Yangi yil bu yangi ezgu maqsadlar va yaxshi niyatlardir. Hamma yangi yilni intizorlik bilan kutadi. Biz Yangi yil haqida gapirar ekanmiz, beixtiyor ko'z o'ngimizda sovg'a-salomli qorbobo, yasatilgan archa gavdalani. Kattalar yangi ishlari haqida o'ylashsa, jajji bolajonlar qorboboden qanday sovg'a olishni o'ylashadi. Yangi yil bayrami ertakga o'xshaydi. Yangi yil kechasi barcha yomonliklar ortda qoladi-yu, yangi yilda faqat yaxshilik bo'ladi deb barchamiz niyat qilamiz. Yurtimziga barchabarchaga shodlik baxsh etib Yangi yil kirib kelmoqda. Qayerga qaramang, yangi yil bayram dasturlari, bezaklarini ko'rishingiz mumkin. Xalqimiz esa allaqachon bayramni nishonlashni boshlab yuborgan, desam xato bo'lmaydi. Yangi yilga sihat-salomatlida,

tinch-xotirjam, yaxshi kayfiyat bilan yetib kelganimizni o'zi katta bax!

Yangi yil mo'jizalar bayrami bo'lgani uchun bu kunda aytildagan hamma niyat-u orzular amalga oshadi, shuning uchun bu kunda yuragimiz tubidagi yuksak orzularimiz ro'yobini yaratgandan so'raylik. Yil oxiri kelganda, yil davomida qilgan ishimizni, olgan bilimimizni, shonshuhratni hisoblaymiz, umuman olganda har bir inson hech bo'limasa o'z-o'ziga bir marta savol beradi. O'tgan 365 kunda men nima qildim va nimalarga erishdim? Eski yil o'z o'rnini Yangi yilga bo'shatib beradi, Yangi yil keladi, xayolda bir yilga katta bo'ldik, bir yilga qaridik, bir yoshlik aqlga ega bo'ldik... Lekin shu bir yil ichida nimalarga erishdik? Biz o'z imkoniyatlarni o'zimizdan qanchalik foydalana oldik, qanchalik foydalana olmadik. Aslida ham shunday, yana ellik yil umrim bor deb o'ylasangiz, orzularingiz xuddi ellik chaqirim narida turganday g'ira-shira tasavvur qilasiz. Agar besh yillik umrim bor deb o'ylasangiz, besh qadam narida turgan orzularingizni ko'rganday yugurishga tushasiz. Haqiqatdan ham hayot go'zal va hammaning yashagisi keladi. Shuning uchun maqsadingizni xuddi besh qadam narida turganday tasavvur qiling. Uni ko'z oldingizdan bir zum nari qochirmang. Hayotning har bir lahzasini shu maqsad sari yo'naltiring. Olloh ko'ngilga qanday maqsadni solsa, shunday imkonni ham yaratib beradi. Yaratgan kishiga maqsadiga yarasha kuch-quvvat ato etadi. Odam o'zi sezmagani holda ilohiy kuch, fayz-u barokatdan bahramand bo'laveradi.

Yangi yilingiz muborak aziz do'stlar!

Nigina BAXRONOVA,  
"Kutubxona-axborot faoliyati"  
ta'lim yo'naliishi 3-bosqich talabasi

## Mayin qor...

Qishloq uzra yog'ar mayin qor,  
Tom labida qotgan yax kabi-  
Tik turibman ko'kka boqib lol,  
She'r izlaydi mening ko'zlarim...

O'tin yorar otam hansirab,  
Qarab qo'yargohoh mo'l tirab.  
"Yordamlashsang bo'lardi balki..."  
She'r izlaydi mening ko'zlarim.

"Qaqqaymasdan tezda uyga kir,  
Yog'may ketsin qorgina o'ligr!"  
Shamol silar onam yuzlarin,  
She'r izlaydi mening ko'zlarim.

Qishloq ahli bezor sovuqdan,  
Ko'rgisi yo'q qorli izlarni.  
Faqtgina bir yigit xursand -  
She'r izlaydi uning ko'zlarim!

Qishloq uzra yog'ar mayin qor...

Oqil ABDUBARNOEB



## Yangi yil

Man, ulg'ayibmiz yana bir yoshta:  
Ortimida yillar - zafarlarga boy!  
Balki, Yangi yilda biz kutgan kunlar,  
Bizni ham intizor kutar, hoynahoy!

Izg'irin chimchilar... samoda quyosh!  
Bilmadim, qay biri qilar g'alaba!  
Ammo yostiq quchib sovuq xonada,  
Qishloqqa ketishni o'ylar talaba!!!

Kimdir sog'inadi yangi visolni,  
Yana kimdir kutar o'zga bir hayot!  
Olam oppoq qorga belangan chog'i,  
Har inson orzu-la entikar, hayhot!

Shodlikka to'lsin dil, porlasin ko'zlar,  
Ertangi kun uchun quvonsin ko'ngil!  
Yangi orzu bilan, yangi baxt bilan  
Eshik qoqayotir, ana - Yangi yil!

E'zoza KARIMOVA,

"Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish" ta'lim  
yo'naliishi 3-bosqich talabasi

## Quyon yilidagi maqsadlar

**Yangi 2023-yil kirib kelishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Yangi yil – eng orziqb kutiladigan bayram. U qalblarga yangi orzu-umidlar va quvonch bag'ishlaydi. Ayniqsa, jajji bolajonlar ushu bayramni intiqib kutadi. Yangi yilning ramzi qorbobo va qorqiz hamda yasatilgan archa hisoblanadi. Soatlar millari an'anaviy tarzda 24 ga bong urganda, 31-dekabrdan 1-yanvarga o'tar kechada Yangi yil kirib keladi. Shu vaqtida odamlar bezatilgan dasturxon atrofida ushu bayramni o'z yaqinlari bilan keng nishonlaydi. Shuningdek, turli sovg'alar bilan bir-birlarini xushnud etadi.**

**Muassis:**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YULDASHEV

Tahrir hay'ati:  
Sobirjon JUMAYEV  
Jumagul NISHONOVA  
Mas'ul kotib:  
Ozoda Shobilova  
Sahifalovchi:  
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,  
Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.  
Telefon: (71) 230-28-03.  
(71) 230-28-13.

www.dsni.uz;  
nashriyot@dsni.uz

buyumlarni derazadan uloqtirish ar'anasi hozirgi kungacha saqlanib qolmoqda.

9. Dunyodagi eng o'ikan Yangi yil archasi Meksika poytaxti Mexikoda 2009-yilda o'rnatilgan. Uning uzunligi 110 metr 35 santimetr bo'lgan.

10. Qorbobo dastlab Yangi yil bayramining yagona qahramoni bo'lgan. Biroq 1873-yilda Aleksandr Ostrovskiy tomonidan yozilgan "Снегурочка" ("Qorqiz") asaridan so'ng qorqiz ham Yangi yil qahramoniga aylangan. Qorqiz dastlab qorboboning qizi bo'lgan. Keyinchalik nabirasiga aylangan.

Yangi 2023-yil har bir oilaga yaxshilik va farovonlik, baxt va quvonch keltirsin! Uylarimizda, muborak zaminimizda tinchlik va osoyishtalik hukm sursin, osmonimiz musaffo bo'lsin.

Xusnidaxon QO'SHOQOVA,  
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'naliishi  
4-bosqich talabasi

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.  
Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxda.  
Chop etishga 27.12.2022 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqamida bilan 2012-yil 19-dekabrdan ro'yxatga olingan.

Gazeta har oyning oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.  
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.